

“XAMSA” FRAZEMALARINING ARABIY, FORSIY VA TURKIY QATLAMLARI: GENETIK-SEMANTIK YONDASHUV

Iqbol Abdikarimova O‘RAZOVA

doktorant

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

iqbolorazova@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada “Xamsa” asaridagi frazemalarning genetik manbalari asosida tasnifi va tahlili amalga oshirilgan. Unda frazeologik birliklarning arabiy, forsiy va turkiy qatlamlari diaxron hamda etimologik yondashuv asosida yoritilib, ularning shakllanish omillari, semantik taraqqiyoti va badiiy matndagi funksional xususiyatlari ochib berilgan.

Tayanch so‘zlar: frazema, genetik manba, arabiy qatlam, forsiy qatlam, turkiy qatlam, etimologik tahlil, diaxron yondashuv, semema, leksema, sema.

АРАБСКИЙ, ПЕРСИДСКИЙ И ТЮРКСКИЙ СЛОИ ФРАЗЕМ “ХАМСЫ”: ГЕНЕТИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ ПОДХОД

Икбол Абдикаримова УРАЗОВА

докторант

Ташкентский государственный университет

узбекского языка и литературы имени Алишера Навои

Ташкент, Узбекистан

iqbolorazova@gmail.com

Аннотация

В статье проводится классификация и анализ фразем произведения “Хамса” на основе их генетических источников. Рассматриваются арабский, персидский и тюркский слои фразеологических единиц с позиций диахронического и этимологического подходов; раскрываются факторы их формирования, семантическое развитие и функциональные особенности в художественном тексте.

Ключевые слова: фразема, генетический источник, арабский слой, персидский слой, тюркский слой, этимологический анализ, диахронический подход, семема, лексема, сема.

Alisher Navoiy “Xamsa”si turkiy til latofatini, zanginligini va ranginligini o‘zida mujassam etgan yirik badiiy yodgorlikdir. Ushbu asarda qo‘llangan frazemalar nafaqat uslubiy xususiyati bilan, balki uch til imkoniyatlarini aks ettiruvchi til birliklari sifatida alohida ilmiy qiziqish uyg‘otadi. Frazemalarning shakllanishi tarixiy-lisoniy jarayonlar, madaniy aloqalar hamda tarjima an‘analari

bilan uzviy bog‘liqdir. Shu bois ularni genetik-semantik yondashuv asosida tahlil qilish Navoiy badiiy tilining imkoniyatlarini ochishga xizmat qiladi.

Ma’lumki, mumtoz manbalardan frazeologik birliklarni ajratish nisbatan murakkab jarayon, sababi, aksariyat birliklar bugungi kunda ishlatilmaydi yoki iste’moli cheklangan yoxud o‘rniga muqobili amalda. Qolaversa, biz frazema deb taxmin qilgan birlikni real nutq orqali kuzatish imkoniyatiga ega emasmiz, ularni faqat turli yozma manbalar asosida qiyoslash mumkin. Shu sabab frazemalarni badiiy asardan ajratishda quyidagi tamoyillarga amal qilindi:

1. *Barqaror birikma holda uchrashi.* Frazemalar uchun shakliy va semantik barqarorlik xarakterlidir: a) *shakliy barqarorlik.* Dostonlarda frazema sifatida ko‘rilgan birlikning boshqa asarlarda ham shakliy jihatdan yaxlit holda uchrashi, komponentlarning o‘zgarmasligi, birikma holda matnga kirib kelishiga e’tibor berildi; b) *semantik barqarorlik.* Frazema sifatida ko‘rilgan birlikning semantik barqarorligi va turg‘unligiga, turli o‘rinlarda ifodalagan ma’noning umumiylik kasb etishiga e’yibor qaratildi.

2. *Frazeologik ma’noning ko‘chimga asoslangani:* Bilamizki, frazemalar dastlab o‘z ma’nosida qo‘llangan erkin birikmalarning transpozitsiyasidan hosil bo‘ladi. Ishda frazema sifatida ko‘rilgan birlikning semantik mundarijasi ko‘chma ma’noga asoslanishi lozimligiga alohida urg‘u berildi.

3. *Ma’noviy valentligi.* Frazemaning matndan tashqarida ifodalagan ma’nosi birlikning bosh ma’nosi sanaladi. Frazemalar ijodkor mahorati sabab turli yangi ma’nolarni ifodalashga ham bo‘ysundurilishi mumkin (ikkilamchi transpozitsiya), ammo bu yangi ma’nolar bosh ma’no negizida shakllanadi, ya’ni yangi ma’no va bosh ma’no o‘rtasidagi aloqa sezilib turadi va frazeologik polisemiyaning yuzaga keltiradi. Frazemalarni manbalardan ajratishda semantik tarkibi kengaygan frazemalar bosh ma’noga yaqinligi nuqtayi nazardan o‘rganildi va bunday birliklar polisemantik frazemalar sifatida olindi. Shuningdek, yuzaga kelgan yangi ma’no ko‘chma ma’noga asoslanishi, frazemaalarga xos obrazlilik, ekspressivlikning mavjudligiga e’tibor qaratildi.

4. *Transformatsiyaga uchrashi*. Frazemalarning nutqda (yozma yoki og‘zaki nutq ekanligi ahamiyatsiz) transformatsiyaga uchrashi ularning “tirik birlik” ekanini ko‘ratadi. Frazemalarning transformatsion shakllari variantlashuv sifatida baholandi. Transformatsiya maznuniy planga o‘tgan hollarda yangi frazema sifatida ko‘rildi. Kuzatuvlarimiz shuni isbotlaydiki, transformatsiya aksar hollarda barqarorlikni buzmaydi, aksincha, frazemani kommunikativ jihatdan faol qiladi.

5. *Grammatik vositalarning qo‘llanishi*. Ma‘lumki, grammatik vositalar frazema tarkibida qo‘llanishi mumkin, yoki frazema oxiriga qo‘shilishi mumkin. Frazemalar oxiriga qo‘shilgan grammatik qo‘shimchalar birliklarni gap bo‘lagi vazifasida xoslovchi vosita ekanligi inobatga olindi. Frazema tarkibida qo‘llanuvchi grammatik vositalarning o‘zgarishi yangi frazemalarni yuzaga keltirishi va ma‘no farqlash vazifasini bajarishiga e‘tibor qaratildi hamda alohida birliklar sifatida izohlandi.

6. *Variantlashuv* – frazemalar tarkibida leksik, fonetik yoki grammatik o‘zgarishlarning amalga oshishi va bu o‘zgarishning ma‘noga o‘tmasligidir. Diaxron nuqtayi nazardan variantlashuv me‘yorlashuv jarayonining mahsuli bo‘lib, ayrim variantlar tarixan yo‘qoladi, boshqalari esa adabiy me‘yor sifatida mustahkamlanadi.

Ushbu tamoyillar asosida Navoiy “Xamsa”si tarkibiga kiruvchi besh dostonidan takrorlarsiz 2371 ta frazema aniqlandi va tahlil uchun ajratib olindi. “Xamsa”dagi frazemalarni genetik manbasiga ko‘ra uch guruhga ajratish mumkin:

1. *Arabcha frazemalar*. Dostonlarda arab tili tabiatini aks ettiruvchi frazemalar ham mavjud bo‘lib, bu ayniqsa nom ifodalovchi frazemalar orasida ancha faoldir. Aksar holda bunday frazemalar arab tili sintaktik qonuniyatini aks ettiruvchi ot+ot qolipli arabiy izofadan tashkil topadi: *fikri sahih* – “to‘g‘ri andisha, yaxshi o‘y, niyat”; *hadisi doston* – “ovoza, mashhur”; *hakimi azal* – “azaliy donishmand”, *Alloh*; *haloki jon* – “o‘ldiruvchi, halok etuvchi”), “o‘lim”, *irodayi ilohiy* – “taqdir” kabi. Ushbu frazemalarning matnda anglanishi o‘quvchi uchun murakkablik tug‘dirmaydi, chunki matndagi mazmuniy silsila frazemaning ma‘nosini anglashga yordam beradi: *Fikri sahih elga bisotida ot, Qilsa*

parishonlig' olub anda mot [1]; Aning mushkilotin hakim etsa hal, Muniy mushkilotin hakimi azal [2].

2. *Forscha frazemalar.* Dostonlarda fors tili qonuniyatlari asosida shakllangan va shu tilda faol qo'llanuvchi frazemalar ham mavjud. Bunday frazemalar orasida forsiy izofali birikma tarzidagi birikuv nisbatan ustunlik qilsa-da, boshqa sintaktik qolipli frazemalar ham uchraydi: *fidoyi jon, in yakodu, qadam to bafarq* kabi. Eng muhim jihati bu frazemalarning turkiy shakllari ham dostonlarda birday faol. Masalan, *köz tegmäsin* frazemesi fors tilida *in yakodu* ("bu deyarli, bu sal qoldi") shaklida qo'llanadi va "Hayrat ul-abror", "Layli va Majnun", "Saddi Iskandariy" dostonlarida uchraydi. Arab tilida bunday frazema mavjud emas, shunga o'xshash *hodho yakodu* birikuvi erkin birikma tarzida ishlatiladi. Frazema forsiy *in (bu)* olmoshi va arabiy *yakodu* (deyali, oz qoldiki) fe'lining birikuvidan tashkil topgan va fors tilida frazemesi sifatida mumtoz manbalarda qo'llanadi. Navoiy baytlarida frazema "ko'z tegmasin, hasaddan ilohiy himoya bo'lsin" ma'nolarida uchraydi: *Tong otquncha yummayin ko'zin tijr, Aylar edi "in yakodu" tahrir [3].* Yoki dostonlarda faol qo'llangan *qadam to bafarq* ("oyoqdan boshqacha") frazemesi *boshdin ayoq* frazemasining forsiy shakli bo'lib, har ikkala shakl dostonlarda o'rni bilan ishlatilgan: *Bolub tig'zanlar qadam to bafarq, Falak turkidek ko'k temur ichra g'arq [2].*

3. *Turkiy frazemalar.* Navoiy frazemalarining katta qismini turkiy frazemalar tashkil qiladi. Turkiy frazemalarni shartli ravishda quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

– *tarkibi turkiy leksemalardan iborat o'z qatlam frazemalari.* Bunday birliklarning aksarini Navoiygacha turkiy tilda mavjud bo'lgan xalq tilidagi frazemalar tashkil qiladi. Ushbu guruhga mansub frazemalarni Navoiygacha yashagan ijodkorlar ijodi bilan qiyoslash orqali yoki xalq og'zaki ijodi namunalari o'rganish orqali aniqlash mumkin: *ip ešä almas* – "butunlay tenglasha olmas", *külini kökkä savur* – "butunlay yo'q qilmoq", *Teñri jetkürmiş* – "g'oyibdan madad keldi", *vaj tart* – "faryod qilmoq" kabi. Ba'zan bunday frazemalar tarkibidagi qadimgi turkiy tilga mansub leksemalar ham frazemalarning qadimiyligini bildirib turadi.

Masalan, *ikki yuzi chum qaro* frazemasida dostonlarda “aybdor” ma’nosini ifodalaydi: *Ya’ni meni muhtaloni istab, Ikki yuzi chum qaroni istab* [3]. Frazema tarkibidagi leksemalar sof turkiy qatlamga mansub bo‘lib, *čüm* komponenti bugungi til egasi uchun biroz tushunarsizdir. *Chum* leksemasining DLT da *čim*, *süm* variantlari uchraydi va *čim* – “biror narsaning namligini yoki xomligini oshirib ko‘rsatishda qo‘llanadigan so‘z” [4], *süm* – “juda” [4] ma’nolari ko‘rsatilgan. DTSda esa *čim* leksemasi omonim birlik ekani qayd etilib, uchinchi omonimik shakl kuchaytiruv yuklamasi sifatida izohlangan [5]. Navoiy asarlarida leksema mustaqil tarzda “tamoman, butunlay, tim” [6] ma’nolarini ifodalab keladi. Demak, xulosa qilish mumkinki, qadimgi turkiy tilda *čim/süm* leksemasi Navoiy davriga kelib *chum* shaklini olgan. Yoki *dang qol*= – “hayratlanmoq”, *ko‘zidin mo‘ldur oqiz*= – “yig‘lamoq”, *mo‘ya tort*= – “ho‘ngrab yig‘lamoq, ezilib yig‘lamoq”, *ushturak ur*= – “to‘lqinlanmoq” frazemalaridagi *dang*, *mo‘ldur*, *mo‘ya*, *ushturak* komponentlari ham ana shunday qadim ildizga ega.

– *forsiy va turkiy komponentli o‘z qatlam frazemalari*. Bunday frazemalar Navoiy ijodida ancha faol: *rishta uz*= (“aloqalarini to‘xtatmoq”), *tarona chek*= (“kuylamoq, qo‘shiq aytmoq”), *ram top*= (“hurkmoq”), *oroyish top*= (“go‘zallashmoq”), *oshub tush*= (“to‘polon bo‘lmoq”), *qoshig‘a girih sol*= (“g‘azablantirmoq; o‘ylantirmoq”). Aksar holda ijodkor turkiy frazemalarning ma’lum komponentlarini forsiy leksemalar bilan almashtirish (yarim kalka) orqali shu frazemaning variantini shakllantirgan. Bunga ijodkorni quyidagi omillar undaydi: a) ba’zan vazn talabi sabab frazemada komponent almashinuvi amalga oshirilgan. Masalan, *ot sur*= frazemasida „Farhod va Shirin“ dostonida *raxshini sur*= tarzida qo‘llanadi: *Chu raxshin surdi ul yon bemadoro, Qiyomat ko‘rdi bo‘lg‘on oshkoro* [7]. Ma’lumki, doston hazaji musaddasi mahzuf vaznida yozilgan (V – – – / V – – – / V – – –). Ot komponentining egalik qo‘shimchasini olishi ochiq hijoni hosil qilar edi, *raxshin sur*= frazemasida esa vaznni saqlaydi va ohangga to‘la mos. Bizningcha, ayni sabab bilan *ot sur*= frazemasining *rashx sol*=, *markab sur*= / *markabni sur*= shakllari ijodkor tomonidan yarim kalka yo‘li bilan hosil qilingan. b) ba’zan qofiyadosh so‘zlarni topishga bo‘lgan urinish sabab frazema komponenti

forsiy yoki arabiy leksemalar bilan almashtiriladi. Masalan, *bel bog'la*= frazemasining varianti sanalgan *kamar bog'la*= frazemesi tarkibidagi *kamar* leksemasi quyidagi baytda qofiyani ta'minlashga xizmat qilmoqda: *Qilmay o'zin ruxsat ishiga samar, "Mim"i azimat bila bog'lab kamar [1]*. O'zni bilan frazemaning *kamar chust et*= (f+f+t) shakli ham qo'llanadi. d) ba'zan esa takrorlardan qochishga bo'lgan urinish sabab frazemalar variatsiyasi yuzaga kelgan. Masalan, "to'polon bo'lmoq", "to'polon qilmoq" ma'nosi *oshub tush*=, *alolo tush*=, *qiyomat sol*=, *qiyomat qo'par*=, *g'avg'o sol*=, *g'irevi sol*=, *sho'r sol*=, *sho'ri tush*=, *sho'r-u shar sol*=, *sho'r-u shayn sol*=, *sho'r-u g'avg'o jahong'a sol*= kabi frazemalar bilan ifodalanishi fikrimizni dalillaydi. Arabiy tarkibli yarim kalkadan hosil qilingan frazemalar haqida ham ayni fikrni aytish mumkin. Umuman olganda, Navoiy ijodidagi yarim kalka asosida shakllangan turkiy frazemalarning bir qismi tilda avvaldan mavjud bo'lgan va Navoiygacha qo'llangan birliklar bo'lsa, katta qismi ijodkorning til imkoniyatlarini kengaytirishga bo'lgan urinishi mahsulidir.

– *arabiy va turkiy komponentli o'z qatlam frazemalari*. Arabiy leksemali qorishiq frazemalar "Xamsa" dostonlarida ancha faol: *alolo tush*= ("g'ala-g'ovur to'polon boshlanmoq"), *aqd izdivojig'a tortil*= ("nikohlanmoq"), *hisob ko'tar*= ("unutmoq"), *kamol tut*= ("yuksalmoq") kabi. Bu frazemalarning aksarida grammatik tayanch komponent turkiy so'z bilan (aksar holda fe'l bilan) ifodalanadi. Navoiy ijodidagi arabiy komponentli frazemalarni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin:

a) birinchi guruhga oid frazemalar hozirgi o'zbek tilida saqlangan va nutqda faol qo'llanuvchi frazemalardir. Bu frazemalarda qo'llangan arabiy leksema tilda o'rnashib qolishi frazemalarning bugungi kundagi iste'molini ta'minlamoqda. Masalan, *uyquni harom et*= frazemesi dostonlarda "uyquni buzmoq, uyqusiz qilmoq, bezovtalanmoq" ma'nosini bildiradi va bugungi kunda ham "rohatsiz etmoq", "uyqusini buzmoq" ma'nosida qo'llanadi. Yoki Navoiy tilidagi faol frazemalardan biri bo'lgan *taskin top*= frazemesi esa "tinchlantirmoq", "to'xtamoq", "qaror topmoq" ma'nolarini ifodalaydi. Frazema bugungi tilimizda

semantik torayishga uchrab, *ko'ngil / qalb / yurak* so'zlari bilan birikib "tinchlanmoq", "sokinlashmoq" ma'nolarini bildiradi.

b) Ikkinchi guruhga oid frazemalar tilning ma'lum bosqichida eskirgan va iste'moli cheklangani bilan xarakterlanadi. Bu frazemalarning arxaiklashuvini tarkibidagi arabiy leksemaning tilimizga qabul qilinmagani bilan izohlash mumkin. Masalan, *karr-u far sol*= frazemasi "shon-u shavkat, dabdaba qilmoq", "hashamat qilmoq" ma'nosini bildiradi. Frazema tarkibidagi *karr-u far* ("ko'paytirish; nufuz, obro'") komponenti tilga singmagandan so'ng frazema eskirgan va uning o'rnini *dabdabaga berilmoq* frazemasi egallagan. Yoki *aqd izdivojig'a tortil*= frazemasi „nikohlanmoq“ ma'nosini anglatadi. Frazema tarkibidagi *aqd, izdivoj* (bog'lash; nikoh) arabiy leksemalar tilda o'troqlashmadi. Tilning keyingi taraqqiyot bosqichlarida birlik o'rnida *boshini bog'lamoq* frazemasi faollashgan.

– *arabiy, forsiy va turkiy tarkibli o'z qatlam frazemalari*. Navoiy ijodidagi frazemalarning aksari ikki komponentli, ammo bu ko'p komponentli frazemalar imkoniyatini cheklamaydi. Ba'zan ijodkor *xirad oyinig'a futur yet*= ("aqlini yo'qotmoq"; f+a+t), *vadiati nihoni topshur*= ("o'lmoq"; a+f+t), *sho'r-u g'avg'o jahong'a sol*= ("to'plon qilmoq"; f+a+f+t), *o'zga olam sori makon qil*= ("o'lmoq"; t+f+f+a+t), *zavolg'a mayl ayla*= ("botmoq"; f+a+t) kabi uch til negizida shakllangan birliklarni qo'llash orqali ham fikrini aniq, obrazli va boy axborot orqali yetkazgan.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, "Xamsa" tarkibidagi frazemalar arabiy, forsiy va turkiy genetik qatlamlarning murakkab integratsiyasi asosida shakllangan. Ularning semantik taraqqiyoti abstrakt-badiiy mazmun sari rivojlangan bo'lib, matnda muhim estetik va uslubiy vazifa bajaradi. Genetik-semantik yondashuv Navoiy badiiy tilining ko'p qatlamli tabiatini hamda mumtoz frazeologiyaning tarixiy-lisoniy asoslarini tizimli ravishda ochib berishga imkon yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4-том. – Тошкент: Фан, 1984.

2. Navoiy, A. Saddi Iskandariy. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2020.
3. Navoiy, A. Layli va Majnun. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2020.
4. Кошғарий М. Девону луғати-т-турк. Нашрга тайёрловчи: Қ.Содиқов. – Тошкент: Гафур Гулом, 2017.
5. Древнетюркский словарь. – Ленинград: Наука, 1969.
6. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 3-том. – Тошкент: Фан, 1984.
7. Navoiy, A. Farhod va Shirin. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2020.